Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqobat muhitining kuchayib borayotgan sharoitida sanoat tarmoqlarining barqaror o'sishi, asosan, korxonalarning raqobat ustunliklarini aniqlash va ularni strategik boshqaruvda samarali qo'llash darajasiga bog'liq. Tadqiqotda raqobatbardoshlik manbalari sifatida innovatsion faoliyat, texnologik yangilanish, mahsulot sifati, narx siyosati hamda inson resurslari salohiyatining ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, barqaror rivojlanishga erishishda ichki va tashqi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va strategik boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqobat ustunligi, sanoat korxonalari, barqaror rivojlanish, innovatsiya, strategik boshqaruv.

Abstract: This article examines the potential for ensuring the sustainable development of industrial enterprises by enhancing their competitiveness. In the context of intensified market rivalry, the sustainable growth of industrial sectors largely depends on accurately identifying competitive advantages and effectively applying them within strategic management. The study thoroughly explores key sources of competitiveness such as innovation, technological advancement, product quality, pricing policy, and human resource capacity. Furthermore, the interrelation of internal and external factors and modern strategic management approaches toward achieving sustainability is analyzed in depth.

Key words: competitive advantage, industrial enterprises, sustainable development, innovation, strategic management.

Аннотация: В статье анализируются возможности обеспечения устойчивого развития промышленных предприятий за счёт повышения их конкурентоспособности. В условиях усиливающейся конкуренции устойчивый рост промышленных отраслей в значительной степени зависит от точного определения конкурентных преимуществ и их эффективного применения в стратегическом управлении. В исследовании подробно раскрывается значимость таких источников конкурентных преимуществ, как инновационная активность, технологические обновления, качество продукции, ценовая политика и кадровый потенциал. Также проводится углублённый анализ взаимосвязи внутренних и внешних факторов и современных стратегических подходов к управлению.

Ключевые слова: конкурентные преимущества, промышленные предприятия, устойчивое развитие, инновации, стратегическое управление.

KIRISH

Raqobatbardoshlik zamonaviy iqtisodiyotda korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi globalashuv va texnologik yangilanishlar davrida sanoat korxonalarining raqobatga chidamliligi nafaqat mahsulot sifati va narxi bilan belgilanadi, balki innovatsion yondashuvlar, ishlab chiqarish texnologiyalarining zamonaviyligi, boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi, inson resurslari salohiyati hamda bozordagi moslashuvchanlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish dasturining to'qqizinchi maqsadi – "Iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish uchun sifatli, ishonchli hamda mustahkam infrastrukturani, jumladan, hududlar bo'yicha rivojlangan infratuzilmalarni yaratish"ga qaratilgan. Ushbu maqsadlar esa sanoatning tarmoqlararo tuzilmasini hamda hududiy strukturasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston sanoat tarmoqlari so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib, mamlakat iqtisodiyoti tarkibida muhim o'ringa ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, ichki va tashqi bozorlarda yuzaga kelayotgan raqobatning kuchayishi sanoat korxonalaridan yangicha strategik yondashuvlar, innovatsion qarorlar va samarali boshqaruv usullarini talab qilmoqda. O'zbekiston sanoat korxonalari uchun raqamlashtirish va texnologik modernizatsiya ayniqsa muhim ahamiyatga ega.



Davlat tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, innovatsion yechimlarni rag'batlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 5-oktabrda tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi sanoat korxonalari faoliyatini texnologik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Aynan raqobat ustunligini shakllantirish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash orqali korxonalar iqtisodiy barqarorlikka erishishlari hamda milliy sanoatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shishlari mumkin. Mazkur maqolada sanoat korxonalarining raqobat ustunligini belgilovchi omillar, ularning barqaror rivojlanishga ta'siri va strategik boshqaruvda qo'llanilishi o'rganiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi esa raqobat muhitida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish zaruratiga borib taqaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola doirasidagi tadqiqotda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari tahlil qilindi. Ilmiy izlanish jarayonida tizimli va taqqoslash usullari, shuningdek grafik va statistik tahlil vositalaridan foydalanildi.

Birinchii bosqichda raqobatbardoshlik nazariyasi va unga oid asosiy tushunchalar chuqur o'rganilib, ularning amaliy jihatdan qo'llanilish mexanizmlari tahlil etildi. Keyingi bosqichda esa O'zbekiston sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida ularning rivojlanish dinamikasi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va raqobatbardoshlik darajasi baholandi. Grafik ifodalar orqali asosiy sektorlarning o'sish sur'atlari aks ettirilib, mavjud trendlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilib, ularni milliy realiyatlarga moslashtirish imkoniyatlari batafsil ko'rib chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish dasturi global miqyosda barqaror taraqqiyotga erishishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda sanoat, innovatsiya va infratuzilma sohaslarining rivojlanishi alohida urg'u bilan yoritilgan. Ushbu dasturda qayd etilgan maqsadlar sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanish bo'yicha global tendensiyalarni tushunishda muhim manba hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan PF-6079-sonli farmoni – "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi hujjat – mamlakatning raqamli rivojlanish sohasidagi strategik maqsadlarini belgilaydi [2]. Ushbu farmonda sanoat sektorida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va innovatsion infratuzilmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Statistika integrallashgan axborot tizimi [3] sanoat sektori bo'yicha aniq va tizimli statistik ma'lumotlarni taqdim etib, raqobatbardoshlikni baholashda ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, L.M. Chistov tomonidan tayyorlangan iqtisodiy tizimlarni boshqarishning samarali usullariga bag'ishlangan asarda sanoat va iqtisodiy tizimlar uchun strategik va operatsion boshqaruv yondashuvlari yoritilgan bo'lib, barqaror rivojlanishni ta'minlashda boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan [4].

Tahlil va natijalar. 2010–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil va barqaror o'sib bordi.

1-jadval. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (hududlar kesimida, yillik)¹.

Klassifikator	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
O'zbekiston Respublikasi	38119	47587,1	57552,5	70634,8	84011,6	97598,2	111869,4	148816
Qoraqalpog'iston Respublikasi	697,2	897,8	1034,2	1368,8	1717,2	2387,6	4265,7	6773,3
Andijon viloyati	4701,4	5727,3	6934,9	9278,6	10463,2	9744,6	7965,7	13269,8
Buxoro viloyati	1674,8	2202,6	2457,8	3073,9	3972,6	5143,9	5569,6	6422,3
Jizzax viloyati	522,7	659,6	785,7	933,3	1195,8	1474,5	2001,2	2548,8
Qashqadaryo viloyati	4957,5	5043,6	6076,4	6849,4	7194,7	8721,9	9632,2	10945,9

1 O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi Statistika integrallashgan axborot tizimi. Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/1299/table-data>



Navoiy viloyati	4038,5	4865,7	5761,1	7087,3	8238,9	9286,9	10657,9	13072,9
Namangan viloyati	1007	1358,1	1615,6	1892,1	2315,2	2861,8	3475,7	4615,5
Samarqand viloyati	2011,2	2485,6	3222	3880,1	4966,4	6095,5	7446	9242
Surxondaryo viloyati	756,4	925,8	1101,8	1321,4	1615,3	1910,7	2200,7	2356,4
Sirdaryo viloyati	926,8	1211,4	1528,1	1929,3	2363,1	2820,6	3522,3	3806,5
Toshkent viloyati	5471,2	7286,5	8112,1	10418,3	12474,6	14401	16864,7	21693,4
Farg'ona viloyati	3265,5	4120,1	4596,9	5290,8	6596,4	7170,2	8040,7	9728,5
Xorazm viloyati	628,6	852,4	1014,2	1297,2	1920,8	2616	2802,7	4070,4

2-jadval. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (hududlar kesimida, yillik)².

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1	553265	658991,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10911,9	12736,1	13981,3	16630,4	17624,7	17791,1
Andijon viloyati	27454,7	33122,3	36376,5	35935,3	54352,5	73767,1
Buxoro viloyati	8601,2	14798,2	17574,4	20772,1	27202,4	31860,4
Jizzax viloyati	3581,8	4586,1	5823,8	8731,8	11402	19197,3
Qashqadaryo viloyati	14529,5	20360,1	14612,3	18771,9	22624,4	28767,7
Navoiy viloyati	22892,4	44438,1	65084,9	73633,5	84393,7	101841,9
Namangan viloyati	6586,6	8818,1	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8
Samarqand viloyati	13488,1	15783,6	18383,4	22834,3	29188,6	32955,7
Surxondaryo viloyati	3234,7	4231,3	5322,7	6675,3	7229,8	8848,6
Sirdaryo viloyati	5163,1	7293	7990,9	9813,3	12011,2	15348,1
Toshkent viloyati	37724,4	53484,8	65949,9	83433,9	93935,1	106915,3
Farg'ona viloyati	13613,8	18661,2	21701,2	27761,5	30303,5	35794,9
Xorazm viloyati	6457,2	8538,6	9615,9	13658,1	18323,3	21589,1

(1-2-jadval) Agar 2010-yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi 38,1 ming milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 559,9 ming milliard so'mga yetgan. Bu davr mobaynida respublika sanoati deyarli 14,7 barobarga o'sganini anglatadi.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. 2010-yilda bu ko'rsatkich 5,4 ming milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 136,3 ming milliard so'mga yetgan. Andijon, Farg'ona, Samarqand va Namangan viloyatlarida ham sanoatning rivojlanish sur'atlari yuqori bo'lgan. Ayniqsa, Samarqand viloyatida 2010-yildagi 2 ming milliard so'mlik ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 38,9 ming milliard so'mga yetgan.

Shuningdek, ilgari sanoat jihatdan nisbatan sust rivojlangan hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Xorazm viloyatlarida ham sezilarli o'sish kuzatilgan. Masalan, Jizzax viloyatida 2010-yilda 522,7 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 19,1 ming milliard so'mga yetgan. Ushbu hududlarda infratuzilmaviy loyihalar, yangi korxonalar tashkil etilishi va ishlab chiqarish quvvatlarining barpo etilishi sanoat o'sishiga asosiy turtki bergan omillar qatoriga kiradi.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davr mobaynida sanoat ishlab chiqarishining barqaror o'sib borishi mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi, xususiy sektor faolligining ortishi va investitsiya oqimining kengayishi bilan bevosita bog'liq. Natijada sanoat tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, barqaror rivojlanishning muhim drayveri sifatida e'tirof etilmoqda.

Yalpi ichki mahsulot tahlili

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida yillik yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining 2010-yildan 2024-yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlari asosida mamlakat va viloyatlar iqtisodiyotining o'sish tendensiyalari hamda hududlararo tafovutlar tahlil qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot

2 O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi Statistika integrallashgan axborot tizimi. Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/1299/table-data>



(YaIM) hajmi 2010-yildagi 78 936,6 milliard soʻmdan 2024-yilda 1 545 474 milliard soʻmga yetgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida barqaror oʻsish jarayoni davom etayotganini koʻrsatadi. (1-grafik)

Hududlar kesimida esa quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:


Toshkent shahri respublika boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichga ega boʻlgan hudud hisoblanadi. 2010-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 10 412 milliard soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 281 147,4 milliard soʻmga yetgan. Bunday natijalar poytaxtda sanoat, moliya, transport va xizmatlar sektorlarining yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Toshkent viloyati ham iqtisodiy salohiyat nuqtai nazaridan salmoqli kuchga ega boʻlib, 2010-yilda 7 631,1 milliard soʻmlik YaIM ishlab chiqarilgan boʻlsa, 2024-yilda bu raqam 146 385,2 milliard soʻmga yetgan. Bu viloyat sanoat salohiyati va aholi zichligi bilan ajralib turadi.

Andijon, Namangan va Fargʻona viloyatlari ham iqtisodiy oʻsishda muhim rol oʻynamoqda. Masalan, Andijon viloyatining YaIM hajmi 2010-yildagi 4 497,3 milliard soʻmdan 2024-yilda 90 520,1 milliard soʻmga koʻtarilgan.

Samarqand, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida ham iqtisodiy faollik yuqori boʻlib, bu hududlarda sanoat, turizm va tabiiy resurslardan samarali foydalanish oʻsishga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlarida iqtisodiy oʻsish nisbatan sekinroq boʻlsa-da, soʻnggi yillarda ushbu hududlarning yalpi ichki mahsulot koʻrsatkichlarida sezilarli oʻsish kuzatilmoqda. Masalan, Xorazm viloyatida 2010-yilda 2 888,6 milliard soʻm boʻlgan koʻrsatkich 2024-yilda 27 493,3 milliard soʻmga yetgan.



1-grafik. Oʻzbekiston Respublikasi va uning hududlarida yillik yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi³.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 2010-yildagi 2 181,7 milliard soʻmdan 2024-yilda 29 216,7 milliard soʻmga yetgan. Bu holat ushbu mintaqada sanoat va infratuzilmaning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini koʻrsatadi.

Umuman olganda, tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, Oʻzbekistonda hududiy iqtisodiy oʻsish izchil va barqaror davom etmoqda. YaIM hajmining ortib borishi, birinchi navbatda, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiyalar hajmining oshishi, infratuzilma loyihalarining kengayishi hamda korxonalar faoliyatining jonlanishi bilan izohlanadi. Hududlar kesimidagi iqtisodiy tafovutlar esa ularning resurs salohiyati, geografik joylashuvi va iqtisodiy infratuzilmasi bilan bevosita bogʻliqdir.

Milliy sanoat korxonalari rivojlanishining joriy bosqichi zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirish, shuningdek, global iqtisodiy tizimning turli bosqichlarida raqobatbardoshlikni oshirish masalasini yanada dolzarb qilib qoʻymoqda. Iqtisodiyotni, xususan uning alohida tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash – ishlab chiqarishni koʻp yoʻnalishli (diversifikatsiyalashgan) qilishga xizmat qiladi.

Natijada milliy sanoat korxonalari va ularning mahsulotlari ichki hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlashga erishadi. Bu esa aholini barqaror ish oʻrinlari bilan taʼminlash, ularning hayot sifatini yaxshilash hamda mamlakat iqtisodiyotining izchil oʻsish surʼatlarini taʼminlash imkonini yaratadi.

3 Oʻzbekiston Respublikasi milliy statistika qoʻmitasi Statistika integrallashgan axborot tizimi maʼlumotlariga asosan muallifning shaxsiy ilmiy-ijodiy ishlarnasi.



Shuningdek, sanoat sohasi integratsiya cheklovlarini bartaraf etish, yangi bozorlarga kirib borish va investitsiyalarni faol jalb qilish yo'nalishida ham faoliyatini kuchaytirishi zarur.

Kuchli tomonlar Zaif tomonlar	Kuchli tomonlar Zaif tomonlar
Yevropa Ittifoqi, Kanada, MDH, Belarus, EFTA bilan erkin savdo shartnomalari; Yevropa Ittifoqi bilan mukammal transport aloqalari; ishlab chiqarishning yuqori sifati; sifatli dizayn va moda; ayrim zavodlarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash; raqobatbardosh mehnat xarajatlari.	Ishchi kuchining qarishi, bu esa yangi xodimlarni jalb etishda qiyinchiliklarga olib keladi; o'rta bo'g'indagi kadrlar etishmasligi; huquq tizimiga ishonchsizlik; texnik xodimlarning etishmasligi; mamlakat sharqidagi harbiy harakatlar; ichki xarid qobiliyatining pastligi; past mahsuldorlik; eskirgan uskunalar; milliy brendlarining sezilarli darajada taqsimlanmaganligi
Imkoniyatlar Tahdidlar	Imkoniyatlar Tahdidlar
«tezkor moda» kabi nish bozorlarida kichik buyurtmalarga tezkor javob berishni ta'minlash; milliy brendlarini eksport bozorlarida ilgari surish; mavsumiy to'ldirishni ta'minlash; yuqori moda va hashamatli tovarlarni raqobatbardosh narxda taqdim etish; xalqaro miqyosda Ukraina brendlarini rivojlantirish; kadrlar tayyorlash, ilg'or malaka va texnologiyalarni o'zlashtirish; mahsuldorlikni oshirish maqsadida zavodlarni rekonstruksiya qilish, xususan, modulli ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish; to'qimachilik va aksessuarlar/armaturlar ishlab chiqarishga maqsadli investitsiyalarni jalb qilish; yangi va mavjud zavodlarga investitsiyalar; eksport bozorlarini birinchi navbatda ichki hududda rivojlantirish, so'ngra ularni Evropa Ittifoqi, EFTA, Kanada va Yaqin Sharqqa kengaytirish	Yevropa Ittifoqining GSP imtiyozli rejimi doirasida kiyim-kechak va poyabzal savdosiga bojxona to'lovlarini kamaytirishi, keng qamrovli erkin savdo hududining afzalliklarini kamaytiradi; tashqi mehnat migratsiyasi; Yevro-1 sertifikatini olish bilan bog'liq muammolar.

1-chizma. Milliy sanoat korxonalarining umumiy SWOT tahlili

Milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, mavjud holatni tahlil qilish uchun SWOT-tahlilning qisqa muddatli (ekspres) varianti ishlab chiqildi (1-chizma). Ushbu SWOT-tahlil asosida umumiy xulosa shuki: tashkilotning kuchli tomonlari va mavjud imkoniyatlari kompaniyaning bozor raqobatbardoshligini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi, Kanada va boshqa mintaqalar bilan erkin savdo shartnomalarining mavjudligi, rivojlangan transport aloqalari, yuqori sifatli ishlab chiqarish, shuningdek zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan zavodlar tashkilotning asosiy kuchli tomonlari hisoblanadi. Bundan tashqari, "tezkor moda" (fast fashion) bozorlarida tezkor javob qaytarish, milliy brendlarni eksport qilish, mahsuldorlikni oshirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish kabi imkoniyatlar ham mavjud.

Biroq, tashkilot uchun ba'zi zaif tomonlar ham mavjud. Jumladan, ishchi kuchining qarishi, o'rta bo'g'indagi malakali kadrlar tanqisligi, huquqiy tizimga ishonch pastligi, texnik mutaxassislarining yetishmasligi va ba'zi uskunalarining eskirganligi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, mamlakat sharqidagi harbiy harakatlar va ichki bozorning past xarid qobiliyati tashqi bozorlar bilan samarali hamkorlik qilishga to'sqinlik qilmoqda.

Tashkilot oldida turgan tahdidlar ham mavjud. Xususan, Yevropa Ittifoqining GSP imtiyozli rejimi doirasida kiyim-kechak va poyabzal savdosiga nisbatan bojxona to'lovlarining kamaytirilishi, tashqi mehnat migratsiyasi va Yevro-1 sertifikatini olishdagi byurokratik to'siqlar eksport imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali tashkilot raqobatbardoshligini oshirishi, innovatsiyalarni joriy etishi va yangi bozor segmentlarini egallashi mumkin. Zaif tomonlar va tahdidlarga qarshi kurashish uchun malakali kadrlarni tayyorlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash hamda ichki boshqaruv tizimlarini takomillashtirish zarur. Ana shundagina tashkilot o'z pozitsiyalarini mustahkamlashi va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini kengaytirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash omillari chuqur tahlil qilindi. Raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun korxonalar innovatsion faoliyat, texnologik yangilanishlar, mahsulot sifati, narx siyosati va kadrlar salohiyatini strategik boshqaruvda samarali qo'llashlari talab etiladi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalari barqarorligi nafaqat ichki resurslar va mahsulot sifatiga, balki tashqi omillarga ham bevosita bog'liq bo'lib, xususan, raqobat muhitining o'zgarishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sanoatining so'nggi yillardagi yutuqlari va yuqori o'sish sur'atlari mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi hamda modernizatsiyasi bilan chambarchas bog'langan.

Ayniqsa, texnologik yangilanishlar, raqamlashtirish jarayonlari va ishlab chiqarishni takomillashtirish orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga erishmoqda. Bundan tashqari, hududlararo tafovutlar va sanoat sektorlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish uchun infratuzilma loyihalarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va malakali kadrlar tayyorlash zarurati alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston sanoatining rivojlanish dinamikasi, raqobat muhitidagi o'zgarishlarga tez moslashish, shuningdek innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Shu bilan birga, strategik boshqaruvning samarali yo'nalishlarini tanlash va raqobatbardoshlikni shakllantirish mexanizmlarini joriy etish sanoat korxonalarining uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Maqolada berilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida sanoat korxonalari uchun raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan aniq yechimlar ishlab chiqildi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish dasturi. Manba: <https://www.undp.org/sustainable-development-goals/industry-innovation-and-infrastructure>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Statistika integrallashgan axborot tizimi. Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/1299/table-data>
4. Чистов Л.М. Эффективное управление социально-экономическими системами. СПб.: ООО ТК «Петрополис», 1998. – 475 с



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>